



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

XALQARO HUQUQ DOIRASIDA KORRUPSIYAVIY JINOYATLARNING TURLARI VA TASNIFLANISHI

Nomozov Xusan Axmat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti 70420130 – Xalqaro tijorat huquqi magistranti

E-mail: xusannomozov1422@gmail.com

Xalqaro huquqda korrupsiyaga oid jinoyatlarning umumiy tasniflash tizimi mavjud emas. Biroq, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning xalqaro konvensiyalarda va butun dunyo bo'ylab milliy qonunlarda ko'rib chiqiladigan keng tarqalgan turlari mavjud. Korrupsiyaviy jinoyatlarning xalqaro huquq doirasida turlariga bevosita to'xtalib o'tishdan avval korrupsiya terminini o'ziga to'xtalib o'tamiz. Bir guruh olimlar korrupsiya terminiga quyidagicha izoh beradilar: korrupsiya lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqqan va "pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadi deb hisoblasa, ikkinchi qarash vakillari "korrupsiya" atamasi lotincha "corrumpere" so'zidan kelib chiqib, "buzilish, aynish" degan ma'noni anglatadi deb hisoblaydi. Aynan qaysi so'zdan "korrupsiya" atamasi kelib chiqqanligi ma'lum emasligi bilan bir qatorda hozirda ham shu paytgacha o'tkazilgan ko'plab ilmiy izlanishlar hamda qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlarga qaramasdan, korrupsiyaning umumiy tan olingan muayyan bir tarifi mavjud emas. Professor Q.R.Abdurasulova ham "Korrupsiya tushunchasiga na davlat va huquq nazariyasi, na Jinoyat huquqi nuqtai nazaridan shu vaqtga qadar aniq ta'rif berilmagan" deydi. Ushbu umumiy ta'rifning mavjud emasligi turlicha talqinlar kelib chiqishiga olib kelib, korrupsiyaviy jinoyatlar kvalifikatsiyasida bir qancha muammolari yuzaga keltirishi mumkin.

Xalqaro hujjatlarda ilk bora "korrupsiya" tushunchasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Rezolutsiyasi asosida qabul qilingan 1979-yil 17-dekabrdagi "Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksi" da keltirib o'tiladi. Hujjatga ko'ra, korrupsiya bu mansabdor shaxsning har qanday shakldagi mukofot evaziga o'z mansab vakolatlari doirasida mazkur mukofotni beruvchi shaxs manfaatlarini ko'zlab, lavozim yo'riqnomasi qoidalarini buzgan holda yoki buzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki harakatsizligi hisoblanadi. Ammo R. Zufarov fikricha, korrupsiya nisbatan mukammalroq ta'rif BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida berilgan. Konvensiyada korrupsiya shaxsiy naf ko'rish maqsadida davlat manfaatini suiiste'mol qilish deb ta'riflangan.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyuldagi O'RQ-158-sonli "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga (Nyu-york, 2003 yil 31



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida" Qonuni hamda "2008-yil 28-avgustda kuchga kirgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasining preambulasida: korrupsiya demokratik institutlar va qadriyatlar, etnik qadriyatlar va adolatga putur yetkazib hamda barqaror rivojlanish va huquq-tartibotga zarar keltirib, jamiyatning barqarorligi va xavfsizligi uchun vujudga keltiradigan muammo va tahdidlarning jiddiyliги yuzasidan tashvishga tushib, shuningdek, korrupsiya va jinoyatchilikning boshqa shakllari, xususan, uyushgan va iqtisodiy jinoyatchilik o'rtasidagi aloqalar, shu jumladan noqonuniy pul mablag'larini legallashtirish kabi ko'rinishlardan xavotirlanib hamda endilikda korrupsiya lokal muammodan butun jamiyat va barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga daxl qiladigan va bu bilan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikning juda muhim ahamiyatini belgilaydigan transmilliy hodisaga aylanganligiga amin bo'lib mazkur Konvensiyada keltirilgan masalalar yuzasidan a'zo davlar o'zaro kelishib oladilar". Mazkur konvensiyaga qo'shilishimiz nafaqat korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olishda samarali vosita bo'ldi, balki korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni ushlab berish institutining takomillashishiga ham muhim turtki bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz, albatta.

Korrupsiyaviy jinoyatlarning xalqaro konvensiyalar va butun dunyo bo'ylab milliy qonunlarda ko'rib chiqiladigan keng tarqalgan turlarini quyida keltirib o'tamiz:

Poraxo'rlik (Bribery) – bu davlat mansabdor shaxsining o'z xizmat vazifalarini bajarishi vaqtidagi harakatlariga ta'sir ko'rsatish uchun nomaqbul ustunlikni taklif qilish, va'da qilish, berish yoki talab qilish hisoblanadi. Poraxo'rlik ko'p shakllarda, jumladan, naqd pul, sovg'alar, o'yin-kulgi yoki hatto kelajakda ishga joylashish va'dalarini olish kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. 1948-yilda AQSH tashabbusi bilan Yevropani tiklash bo'yicha Amerika iqtisodiy va moliyaviy yordamini (Marshall rejasi) oqilona ishlatish va shu yordamni oladigan Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik qilish maqsadlarida tuzilgan Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti vorisi tarzida tashkil topgan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD) doirasida korrupsiyaviy jinoyat hisoblanmish poraxo'rlik jinoyati haqida quyidagi izoh keltirilgan, ya'ni uning 1- moddasida pora berish, taklif qilish yoki va'da berish bu – har bir tomon chet el davlat amaldoriga to'g'ridan-to'g'ri yoki vositachilar orqali biron bir ortiqcha moddiy yoki boshqa afzalliklarni taklif qilish, va'da qilish yoki berish uchun o'z qonuniga binoan har qanday shaxs uchun jinoyat ekanligini aniqlash uchun, ushbu mansabdor shaxs uchun yoki uchinchi shaxs uchun, rasmiy



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

ish yoki xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq harakat qilishdan saqlanish uchun, xalqaro biznesni yuritishda biznes yoki boshqa nomuvofiq ustunlikni olish yoki saqlab qolish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'radi. Shuningdek, "Yevropa Konvensiyasi Kengashi (Council of Europe Convention) quyidagicha izoh keltiradi: Har bir tomon tomonidan poraxo'rlik jinoyati qasddan sodir etilganda, o'z ichki qonunchiligiga binoan jinoiy huquqbuzarlik sifatida belgilash uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan qonunchilik va boshqa choralarni ko'radi. Har qanday shaxs tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita biron bir davlat mansabdor shaxsiga o'zi uchun yoki boshqa birov uchun harakat yoki harakatsizlikdan biron bir ortiqcha ustunlikni taklif qilish yoki berishi holati poraxo'rlik sifatida e'tirof etiladi". Shu bilan birgalikda BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasining "15-moddasida milliy ommaviy mansabdor shaxslar (national public officials)ga pora berish – bu har bir ishtirokchi davlat quyida ko'rsatilgan harakatlar ataylab sodir etilganda buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'radi" : ommaviy mansabdor shaxsga shaxsan yoki vositachilar orqali ushbu mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxs o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi maqsadida, biron noqonuniy afzallikni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etish; biron mansabdor shaxs o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron bir harakat yoki harakatsizlik maqsadida mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun biron noqonuniy afzallikni shaxsan ommaviy mansabdor shaxs tomonidan yoki vositachilar orqali talab qilib yoki qabul qilib olish hisoblanadi.

O'g'irlash (Embezzlement) – bu o'ziga ishonib topshirilgan shaxs tomonidan davlat yoki xususiy mablag'larni firibgarlik yo'li bilan o'zlashtirishdir. O'g'irlash kabi huquqbuzarliklar mablag'larni shaxsiy foydalanish uchun yo'naltirish, ularni shaxsiy manfaatlar uchun investitsiya qilish yoki pul bilan yo'q bo'lib ketishni o'z ichiga olishi mumkin. BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi 22-moddasida xususiy sektorda mulkning o'g'irlanishi to'g'risida so'z boradi, unga ko'ra har bir ishtirokchi davlat iqtisodiy, moliyaviy va yoki tijorat faoliyati davomida xususiy sektor ishini tashkil qilishga rahbarlik qilayotgan yoki ushbu tashkilotda istalgan lavozimda ishlayotgan shaxs tomonidan xizmat lavozimiga ko'ra ushbu shaxsning qaramog'ida bo'lgan biron-bir mol-mulk, xususiy mablag'larni yoxud qimmatli qog'ozlar yoki istalgan boshqa qimmatli predmetning o'g'irlanishini, noqonuniy o'zlashtirilishini yoki ko'zda tutilmagan boshqa maqsadlarda ishlatilishini, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralar ko'rish imkoniyatini ko'rib chiqadi.

Ta'sir savdosi (Trading in influence) – bu pora evaziga ma'lum bir kompaniyani lobbi qilish yoki yaqin qarindoshini ishga joylashtirish uchun siyosiy ta'siridan foydalanish shakllarida namoyon bo'ladi. Ta'sir savdosi davlat amaldorining qaror qabul qilishiga haqiqiy yoki aniq ta'sir ko'rsatadigan shaxs bu ta'sirni ortiqcha foyda uchun almashtirganda sodir bo'ladi. Poraxo'rlikda bo'lgani kabi, bunda ham huquqbuzarlikning talab va taklif tomonlari bor. Oluvchi davlat amaldorining qaror qabul qilishiga o'z ta'sirini ko'rsatishi uchun shaxsga taklif qilsa, va'da qilsa yoki ortiqcha ustunlik bersa, jinoyat sodir etishda aybdor hisoblanadi. Ta'sir ko'rsatuvchi sotuvchi, agar u davlat amaldorining qaror qabul qilishiga o'z ta'sirini ko'rsatishi uchun shaxs tomonidan ortiqcha ustunlikni talab qilsa, talab qilsa, qabul qilsa yoki qabul qilsa, aybdor hisoblanadi. "Ta'sir savdosi va poraxo'rlik huquqbuzarliklari juda o'xshash elementlarga ega, bitta asosiy istisnosi mavjud bo'lib, bu ta'sir ostida savdo qilish uchun ustunlikni oluvchi qaror qabul qiluvchi/mansabdor shaxs emas, shuningdek, oluvchi o'z vazifalarini buzgan holda harakat qilishi yoki harakat qilmasligi shart emas. Shunday qilib, huquqbuzarlik qaror qabul qiluvchiga emas, balki qaror qabul qiluvchiga ta'sir qilish orqali "hokimiyat mahallasida bo'lgan va o'z vaziyatidan afzalliklarni olishga harakat qiladigan shaxslarga" qaratilgan. Shuning uchun jinoyat "background corruption" deb ataladi". Vakolatni suiiste'mol qilish (Abuse of authority) – bu mansabdor shaxs o'z vakolatlaridan shaxsiy manfaatlar uchun yoki boshqa birovga zarar etkazish uchun foydalanganda sodir bo'ladi. Bunga do'st yoki oila a'zosiga imtiyozli munosabatda bo'lish yoki siyosiy raqibni jazolash uchun o'z lavozimidan foydalanish holatlari hisoblanadi. BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi 19-moddasida ham xizmat vakolatlaridan foydalanish yoki xizmat lavozimini suiiste'mol qilish, ya'ni ommaviy mansabdor shaxs o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida qonunga xilof ravishda shaxsan o'zi yoki boshqa yuridik yoxud jismoniy shaxs uchun biron noqonuniy afzalliklarni olish maqsadida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi holati hisoblanadi. Nepotizm (Nepotism) huquqbuzarlik shakli shunday ko'rinishga egaki, bu oila a'zolari yoki do'stlariga imtiyoz berish amaliyotidir, ayniqsa ishga olish yoki lavozimga ko'tarilishda. Nepotizm xalqning hukumatga bo'lgan ishonchini susaytirib, samarasizlik va korrupsiyaga olib kelishi mumkin.

Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (Laundering of the proceeds of crime) – noqonuniy yo'l bilan olingan pullarni qonuniy ko'rinishdagi mablag'larga aylantirish jarayoni hisoblanadi. Pul yuvish korrupsiyadan olingan daromadlarni, shuningdek, giyohvand moddalar savdosi va terrorizm kabi boshqa jinoyatlarni



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

yashirish uchun ishlatilishi mumkin. "O'zbekiston Respublikasining tegishli Qonuni bilan 2008-yil 28-avgustda kuchga kirgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi 2-moddasi "e" bandida jinoiy daromadlar deganda nima nazarda tutilishi belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, biron jinoyatni sodir etish natijasida bevosita yoki bilvosita, xarid qilingan yoki qo'lga kiritilgan har qanday mol-mulk - jinoiy daromadlar hisoblanadi". Shuningdek, mazkur Konvensiyaning 14-moddasi "a" bandida pul mablag'larini legallashtirishning oldini olish bo'yicha tadbirlar doirasi belgilab o'tilgan. Unga muvofiq, Konvensiyaga a'zo har bir davlat banklar va bankdan tashqari moliya muassasalariga nisbatan, shu jumladan pul mablag'lari yoki qimmatliklarni o'tkazish bilan bog'liq rasmiy yoki norasmiy xizmatlarni taqdim etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxslarga nisbatan hamda, tegishli hollarda, pul mablag'larini legallashtirish nuqtai nazaridan, o'z vakolati doiralarida, bunday mablag'larni legallashtirishning barcha shakllarini aniqlash va bunga yo'l qo'ymaslik maqsadida keng qamrovli ichki tartibga solish va nazorat qilish rejimini belgilaydi, va shu bilan birga bunday rejim, birinchi navbatda, mijoz shaxsini aniqlashga oid talablarga va, tegishli hollarda, mulkdor-benefitsiarni identifikatsiya qilish, hisobotni yuritish va shubhali operatsiyalar to'g'risida xabarlarni taqdim etishga asoslanadi.

Bular xalqaro huquqda ko'zda tutilgan korrupsiyaviy jinoyatlarining ko'p turlaridan faqat bir nechtasi sanaladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (UNCAC) kabi xalqaro konvensiyalar mamlakatlar uchun ushbu jinoyatlarni jinoiy deb hisoblash va ularni tergov qilish va ta'qib qilishda hamkorlik qilish uchun asos yaratadi.

Yevropa Kengashi va BMT Konvensiyalarida boshqa korrupsiyaviy jinoyatlar sifatida (tegishli qoidalar (faqat ba'zilar majburiy) mavjud) quyidagilarni keltirib o'tadi:

- Ommaviy mansabdor shaxs tomonidan mol-mulk talon-toroj qilinishi, noqonuniy o'zlashtirilishi yoki ko'zda tutilmagan maqsadlarda ishlatilishi (BMT Konvensiyasi, 17-modda, majburiy);
- Noqonuniy tarzda boylik orttirilishi (BMT Konvensiyasi, 20-modda, ixtiyoriy);
- Xususiy sektorda pora berish (Yevropa Kengashi Konvensiyasi, 7 va 8-moddalar, majburiy; BMT Konvensiyasi, 21-modda, ixtiyoriy);
- Xususiy sektorda mulkning o'g'irlanishi (BMT Konvensiyasi, 22-modda, ixtiyoriy);
- Jinoyatni yashirish (BMT Konvensiyasi, 24-modda, ixtiyoriy);



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

- Odil sudlovning amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish (BMT Konvensiyasi, 25-modda, majburiy).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi. <https://lex.uz/docs/-1461329>
2. OECD, Convention on Combating Bribery of Foreign Public Officials in International Business Transactions.
3. www.oecd.org/daf/nocorruption/convention. Council of Europe (1999), Criminal Law Convention on Corruption. www.conventions.coe.int/treaty/en/Treaties/Html/173.htm.
4. Криминология. Учебник. Отв. редактор: М.Х.Рустамбаев. Ташкент: ТГЮИ, 2008. – С.219.
5. Абдурасулова К., Курбонов О. Коррупция: Асосий тушунча ва шакллари (рисола). – Е.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2009. – Б.
6. Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка (Принят резолюцией Генеральной Ассамблеи от 17 декабря 1979г.).
7. Зуфаров Р. Порахўрлик - коррупция негизи // Давлат ва ҳуқуқ. – Тошкент, 2000. – №4. – Б. 41.
8. Fisse, B. (1983), "Reconstructing Corporate Criminal Law: Deterrence, Retribution, Fault and Sanctions", 56 Calif. L.Rev. 1141.